lagan. Milliy miqyosdagi tadqiqotlarda esa O'zbekiston qonunchiligida amalga oshirilgan islohotlar va elektron hukumat tizimining samaradorligi o'rganilgan. Mavjud tadqiqotlarda O'zbekiston, Rossiya va Qirg'iziston axborot kodekslarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan, ularning raqamli huquqlar paradigmasiga ta'sirini bir tizimda baholagan ilmiy ishlar deyarli yo'q. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston, Rossiya va Qirg'izistonning axborot/raqamli kodifikatsiya tajribasi insonning raqamli huquqlari nuqtayi nazaridan qiyosiy-huquqiy asosda tahlil qilindi. Natijada mazkur davlatlarda shakllanayotgan normativ yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlari tizimli ravishda ochib berildi. Raqamli muhitda inson huquqlarini ta'minlashning kompleks yondashuvi, xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish masalasi hali to'liq ishlab chiqilmagan bo'lib, ushbu maqolada shu jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Raqamli transformatsiya sharoitida shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, axborot olish va tarqatish erkinligi hamda kiberxavfsizlik bilan bog'liq huquqlarning zaiflashuv tendensiyalari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, raqamli huquqlarni himoya qilish uchun "Axborot kodeksi"ning funksional modeli taklif etildi va uning tarkibiga shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, elektron hukumat, media savodxonlik hamda raqamli platformalar javobgarligi kabi institutlar kiritilishi asoslandi.

Asosiy qism

Tadqiqot jarayonida Yangi O'zbekiston sharoitida inson huquqlarini raqamli texnologiyalar davrida ta'minlashning amaliy mexanizmlari va mavjud muammolari tahlil qilindi. Bunda normativ-huquqiy bazani o'rganish, davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, hukumat qarorlari, strategik dasturlar va qonunlarning amaliy samarasi o'rganildi. Shu bilan birga, elektron hukumat tizimi faoliyati, raqamli xizmatlar orqali fuqarolarning davlat idoralari bilan

o'zaro munosabatlari, shaxsiy ma'lumotlarning himoya darajasi va kiberxavfsizlik infratuzilmasi bo'yicha mavjud ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Tadqiqotda, shuningdek, xalqaro tajribalar va ilg'or mamlakatlarning inson huquqlarini raqamli sohada himoya qilishdagi yondashuvlari solishtirildi.

Raqamli texnologiyalar bugungi jamiyat hayotiga shiddat bilan kirib kelar ekan, inson huquqlarining ta'minlanishi masalasi yanada murakkablashmoqda. Ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, internetdagi erkinlik, axborotdan foydalanish va uni tarqatish huquqi global miqyosda keskin muhokama qilinayotgan masalalardan biridir.

Axborot kodeksni ishlab chiqish Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasida 2023-yil aprel oyidagi parlament muhokamasida o'rtaga tashlangan. Davlat Dumasining Axborot siyosati qo'mitasi rahbari Aleksandr Xinshteyn Rossiyada axborot kodeks ishlab chiqilishini e'lon qilgan. Uning so'zlariga ko'ra, ushbu hujjat tufayli amaldagi hujjatlarga doimiy ravishda o'zgartirish kiritish zarurati qolmaydi, bu raqamli sohadagi qonunchilik normalariga yondashuvlarni har tomonlama ko'rib chiqishga yordam beradi (Ashmanov, 2023). Aloqa hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida axborot kodeksni ishlab chiqish aloqa tarmog'ini rivojlantirishning 2035-yilgacha mo'ljallangan strategiyasiga kiritilgan. Mazkur kodeksning amal qilishi davlat va boshqa tashkilotlarga, shuningdek, jismoniy shaxslar va kompaniyalarga, jumladan, davlat axborot tizimlaridan foydalanuvchi subyektlarga ham tatbiq etilishi nazarda tutilmoqda (Frolova, 2024). Rossiyada axborot kodeks loyihasi raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi va boshqa zamonaviy texnologiyalarni huquqiy jihatdan tartibga solish uchun mo'ljallangan.

Qirg'iziston Respublikasi Parlamenti 2024-yil 12-dekabr kuni Qirg'iziston Respublikasining Axborot kodeksi loyihasini birinchi

o'qishda qabul qildi. Parlament matbuot xizmatining ma'lumotiga ko'ra, mazkur kodeks normalari nafaqat raqamli makonda qulay huquqiy sharoitlar yaratish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga, balki mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga ham qaratilgan. Qirg'izistonda parlament tasdig'idan o'tgan kodeks esa investorlar uchun huquqiy muhit yaratish, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Raqamli qonunchilikni ishlab chiqish bo'yicha xalqaro konsorsiumning yetakchi hamkori Tattu Mambetaliyeva *Deutsche Welle* (DW) bilan suhbatda Qirg'iziston Respublikasining Axborot kodeksi konsepsiyasi va g'oyasi raqamli jarayonlarni huquqiy tartibga solish usulini o'zgartirishdan iborat ekanini ta'kidladi. U: "Biz texnologiyalar olib kelishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytirishga xizmat qiladigan, shu bilan birga texnologiyalar rivojini qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan yondashuvni ishlab chiqishimiz zarur edi", – deb fikr bildirdi. Kodeksning asosiy maqsadi shaxsga doir ma'lumotlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, bu jarayon ma'lumotlar paydo bo'lgan paytdan boshlab, ular raqamli resurs – veb-sayt, ilova, xizmat yoki servisga aylanganigacha qadar bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Chunki hozirgi kunda ma'lumotlar daromad olish va biznesni shakllantirishning yangi manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Fuqarolarning raqamli huquqlarini himoya qilish nihoyatda muhim ahamiyatga ega, chunki mohiyatan bu an'anaviy huquqlarning raqamli makonga ko'chirilgan shaklidir. Shu bilan birga, agar shaxsga doir ma'lumotlarning himoyasi yetarli darajada ta'minlanmasa, bu aholiga nisbatan firibgarlik sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratadi. So'nggi yillarda bunday holatlar ko'payib bormoqda. Ko'plab fuqarolar o'zlarining asosiy huquqlarini yetarli darajada bilmaydi. Shu sababli ushbu yo'nalishda ishlarni kuchaytirish, fuqarolarning o'z huquqlari yaxshiroq tushunishini ta'minlash hamda shaxsiy ma'lu-

motlarini samarali himoya qila olishlariga erishish zarur (Khvan, 2024).

O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiyasi doirasida Axborot kodeksini qabul qilish rejalashtirilgan bo'lib, bu "yo'l xaritasi"da belgilangan. Mazkur kodeks orqali axborot olish va tarqatish huquqlari tizimlashtirilishi, shuningdek, raqamli muhitda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlari kuchaytirilishi nazarda tutiladi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari mustaqilligi va fuqarolarning axborotdan foydalanish huquqlarini yanada takomillashtirish maqsad qilingan.

Saylov jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish doirasida "E-saylov" axborot tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u hujjatlarni elektron shaklda topshirish, saylov komissiyalari faoliyatini raqamlashtirish hamda saylovchilar ro'yxatini yuritish va monitoring qilishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Natijada fuqarolarning saylov jarayonlaridagi ishtiroki soddalashtiriladi (Zamin.uz, 2025).

Shu nuqtayi nazardan Axborot kodeksini ishlab chiqish zamonaviy ehtiyojdan kelib chiqadi. Ushbu kodeks shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot erkinligi, jurnalistika faoliyati va media savodxonlik kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Raqamlashtirish jarayonining jadallashuvi hamda normativ-huquqiy hujjatlar sonining ortishi ularni yagona tizimga keltirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

"Digital Uzbekistan – 2030" strategiyasi va yangi Konstitutsiya asosida raqamli huquqlarni himoya qilish mexanizmlari shakllanmoqda (Saidov, 2025). Biroq amaliyotda shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, rozilik mexanizmlari va davlat nazoratining samaradorligini oshirish, xususan, ma'lumotlar minimizatsiyasi tamoyilini kuchaytirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, elektron hukumat davlat organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali xizmat ko'rsatishi va o'zaro hamkorligini ta'minlov-

chi tizimdir. Uning asosiy vazifalari davlat boshqaruvi samaradorligi va shaffofligini oshirish, fuqarolar hamda biznes subyektlari bilan o'zaro aloqalarni soddalashtirish, ma'lumotlar bazalari va elektron xizmatlarni rivojlantirish, shuningdek, "bir darcha" tamoyilini joriy etishdan iborat.

Raqamli texnologiyalar keng imkoniyatlar bilan birga yangi xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli raqamli huquqiy tartibot zamonaviy davlat uchun zarur omil hisoblanadi. Axborot kodeksi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli platformalarda ma'lumotlardan foydalanishni tartibga solish hamda xavfsiz va erkin raqamli muhitni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalarda ma'lumotlardan foydalanish jarayonini huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sun'iy intellekt va blokcheyn kabi texnologiyalarni hisobga olgan holda zamonaviy raqamli muhitni shakllantirishga xizmat qiladi (Normominov, 2025).

Xorijiy tajriba ham ushbu yo'nalishda muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, Rossiyada 2006-yilda qabul qilingan shaxsiy ma'lumotlarga oid qonun zamonaviy texnologik talablarga to'liq mos kelmaydi (Russian Federation, 2006). Yevropada esa GDPR joriy etilishi natijasida ma'lumotlarni qayta ishlash tartibi qat'iyashtirilgan (European Union, 2016). Shu bilan birga, yirik ma'lumotlar sizib chiqishi holatlari, xususan, Equifax bilan bog'liq voqea, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi (Federal Trade Commission, 2017).

Ushbu sohada qonunchilikni tartibga solishda normativ-huquqiy hujjatlarning hajmi yildan yilga ko'payib borayotganligi, raqamli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun yagona kodeks ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Elektron tijorat huquqiy munosabatlarini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Te-

lekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylani-shi to'g'risida"gi, "To'lovlar va to'lov tizim-lari to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi, "Tijorat siri to'g'risida"gi, "Raqobat to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi, "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi bir qancha qonunlarga yuzlanishga, kelib chiqadigan nizolarni hal etishda turli qonunlardagi kolliziyalarga to'qnash kelishga sabab bo'ladi. Garchi hozirgi kunda xorijiy davlatlarda raqamli munosabatlarni tartibga solishda yagona kodeks ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, Rossiya federatsiyasida "Axborot kodeks" ishlab chiqish jarayonlari boshlangan bo'lib, kelgusida ushbu sohaning rivoji uni kodekslashtirish zaruratini yuzaga chiqaradi. Raqamlashtirish jarayonining avj olishi va bu sohaga doir ko'plab normativ-huquqiy hujjat-larning qabul qilinishi, o'z navbatida, ularni yagona kodeksga birlashtirish zaruratini yuzaga chiqaradi. Xorijiy davlatlar tajribasiga asoslanib, O'zbekistonning Axborot kodeksini qabul qilish kerak deb hisoblaymiz (Mamada-liyeva, 2023).

Bugungi kunda shaxsga doir ma'lumotlar-ni internetda keng qo'llash raqamli huquqlar-ni huquqiy jihatdan tartibga solishni shiddat bilan talab etmoqda. Odamlar ijtimoiy tar-moqlar va turli onlayn xizmatlarda o'z ma'l-u-motlarini kiritar ekan, ular ko'pincha ushbu ma'lumotlarning kim tomonidan va qanday maqsadda ishlatilishini bilmaydi. Misol sifa-tida, Sh.F. ismli fuqaro "HELLO TASHKENT, SALAM TASHKENT" nomli Telegram kanaliga boshqa bir odamning shaxsiy suratlarini joylashtirgan. Jabrlanuvchi bunga e'tiroz bil-dirib, rasmlarni o'chirishni so'ragan. Sh.F. esa suratlarini o'chirish evaziga undan 1 million so'm pul talab qilgan. Pulni ikki qismda – har safar 500 ming so'mdan – plastik kartasiga

o'tkazib olgan. Sud uni tovlamachilikda ayb-lab, ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinla-gan. Toshkentda bir guruh shaxslar uy ijaraga olib, ichida soxta aloqa markazi ochishgan. Ular fuqarolarga telefon qilib, o'zlarini davlat yoki bank xodimi deb tanishtirib, ularni al-dashgan. Tergov jarayonida ular 15 mingdan ortiq odamning shaxsga doir ma'lumotlari, ko'plab plastik kartalar, hatto giyohvandlik moddalarini ham saqlayotgani aniqlandi. Ter-gov organlari tomonidan 20 dan ortiq shaxs qo'lga olindi, jinoyat ishi qo'zg'atildi (Xabar.uz, 2025). Shu bois *Axborot kodeksining ya-ratilishi nafaqat himoya vositasi, balki fuqaro-larning raqamli makondagi huquqiy kafolatini ta'minlovchi mexanizm* bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyada har bir fuqaro internet-dan erkin foydalanish huquqiga ega deb bel-gilangan. Biroq bu huquq shaxsiy sir, davlat siri yoki boshqa maxfiy axborotlarni tarqa-tishni taqiqlash orqali cheklanishi mumkin. Agar kodeks bo'lmasa, davlatlar internetda erkin fikrni cheklashlari mumkin. Axborot kodeksi esa internetda erkinlikni himoya qi-lib, senzuraning oldini olishga yordam beradi. Uchinchisi esa yangi texnologiyalarni nazorat qilish hisoblanadi. Sun'iy intellekt, blokcheyn kabi texnologiyalar tez rivojlanmoqda. Bu, firibgarliklar, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash kabi xavflarni keltirib chiqaradi. Misol uchun 2022-yilda "OneCoin" kriptovalyuta ponzi sxemasi orqali 4,4 milliard dollar o'g'irlangan (Reuters, 2022). Bu firibgarlikda kriptova-lyutadan noqonuniy pul o'tkazmalari amalga oshirilgan. Axborot kodeksi yangi texnolo-giyalarni nazorat qiladi, ularni noqonuniy ishlatishni oldini oladi va fuqarolarning xavf-sizligini ta'minlaydi (Normo'minov, 2025).

AQSH yoki Yevropa tajribasi shuni ko'r-satadiki, eski qonunlar yangi texnologiya-larni to'liq qamrab olmaydi. Masalan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) yoki blokcheyn texnologiyalari paydo bo'lishi bi-lan shaxsiy hayot daxlsizligiga nisbatan yangi tahdidlar yuzaga kelmoqda. Shunday ekan, *O'zbekistonda Axborot kodeksi ishlab chiqilishi*

milliy raqamli xavfsizlikni mustahkamlash bilan birga, xalqaro standartlarga mos bo'lishi kerak.

Bu borada asosiy vazifa ikki yo'nalishda ko'rinadi:

1. Fuqarolarning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish va ularni noqonuniy foydalanishdan saqlash.

2. Kompaniyalar va tashkilotlar uchun aniq qoidalar ishlab chiqib, ularning javobgarligini oshirish.

Axborot kodeksi orqali O'zbekistonning raqamli infratuzilmasi yanada ishonchli va zamonaviy bo'lib boradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli asrda haqiqatan zaiflashgan raqamli huquqlar orasida shaxsiy hayotning daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirning himoyasi, shuningdek, fuqarolarning murojaat qilish huquqi kabi bir qator inson huquqlarining jihatlari ajralib turadi. Axborot xavfsizligidagi zaiflik – raqamli yangiliklar olib keladigan o'zgarishlarning tabiiy xususiyatlaridir (Bélanger & Crossler, 2011).

O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar sohasida sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron hukumat platformalari soni ortib, davlat xizmatlarining qariyb yarmi onlayn shaklda ko'rsatilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2018–2024-yillar oralig'ida elektron davlat xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ikki baravardan ortiq ko'paygan. Shu bilan birga, fuqarolarning shaxsga doir ma'lumotlarini saqlash va ulardan foydalanishda huquqiy kafolatlar mustahkamlanmoqda. Biroq kiberjinoiyatlar sonining ortishi, yolg'on xabarlar tarqalishi va ayrim xizmatlarda texnik nozozliklar mavjudligi raqamli davrda inson huquqlarini to'liq himoya qilishda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, xalqaro standartlar asosida yangi himoya vositalarini joriy etish zarur.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan hol-

da, bir nechta muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarildi. Birinchidan, elektron hukumat tizimi fuqarolarning davlat organlari bilan munosabatini soddalashtirib, ularning huquqiy imkoniyatlardan teng foydalanish imkoniyatini kengaytirmoqda. Ikkinchidan, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar amaliyotda ijobiy samara bermoqda, biroq ularning ijrosini ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Uchinchidan, xalqaro tajribani o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish inson huquqlarini raqamli sohada kafolatlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. To'rtinchidan, huquqiy ong va madaniyatni oshirish, fuqarolarning axborotdan foydalanish madaniyatini rivojlantirish orqali ularning huquqlarini himoya qilish samaradorligi yanada ortadi. Ushbu natijalarning haqqoniyligi qonunchilik bazasi, statistik ma'lumotlar hamda xalqaro standartlar bilan solishtirilgan holda tasdiqlandi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar orqali inson huquqlarini himoya qilishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ayrim kamchiliklar ham mavjud. Masalan, elektron hukumat xizmatlari ko'laminig kengayishi, davlat organlari faoliyatida shaffoflikning oshirishi muallif tomonidan ijobiy holat sifatida e'tirof etiladi. Biroq shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda uchrayotgan texnik kamchiliklar, kiberjinoiyatlar sonining ortishi, ayrim xizmatlarda fuqarolarning teng imkoniyatlarini cheklovchi omillar tanqidiy baholanadi. Shunday qilib, mavjud natijalarning ijobiy tomonlari qo'llab-quvvatlanadi, muammoli jihatlari esa inkor qilinadi va ularni bartaraf etish bo'yicha izohli fikrlar bildiriladi.

Tadqiqot davomida bir qator ilmiy va amaliy to'siqlarga duch kelindi. Avvalo, O'zbekiston sharoitida inson huquqlarini raqamli maydonda himoya qilish bo'yicha to'liq statistik ma'lumotlarning yetarli emasligi tadqiqotni murakkablashtirdi. Shuningdek,

ayrim qonunchilik hujjatlarining amaliyotda to'liq ishlamasligi yoki ijro mexanizmlarining sustligi muammoni chuqurroq yoritishga to'sqinlik qildi. Bundan tashqari, fuqarolarning ayrim raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi kuzatildi.

Xulosa

Bugungi kunda insonning kundalik hayotini internet va gadjetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, shuningdek, davlatlar o'z funksiyalarini bajarishda ushbu raqamli texnologiyalar orqali o'z vakolatlarining katta qismini amalga oshirmoqda yoki hech bo'lmaganda buni amalga oshirishga harakat qilmoqda (Khudoyan, 2023). Inson huquqlarini raqamli muhitda himoya qilish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, elektron hukumat tizimi fuqarolarning huquq va erkinliklaridan foydalanishini soddalashtiradi, ularning davlat idoralari bilan o'zaro aloqalarini yengillashtiradi hamda shaffoflikni kuchaytiradi. Shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi va kiberxavfsizlik dolzarb muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Mazkur sohada xalqaro standartlarga asoslangan kompleks himoya mexanizmlarini joriy etish

talab etiladi. Eng asosiysi, huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish fuqarolarning raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan to'liq foydalanishida, ularning huquqlarini anglash va himoya qilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-amaliy taklif sifatida raqamli sohada inson huquqlarini ta'minlashga oid milliy qonunchilikni xalqaro huquqiy normalar bilan uyg'unlashtirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash infratuzilmasini kuchaytirish, shuningdek, huquqiy-ma'rifiy platformalar orqali fuqarolarning ongini oshirish lozim.

Umuman olganda, raqamli dunyoda fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoya qilish uchun Axborot kodeksi zarur hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini kafolatlash, internetda fikr almashish erkinligini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni tartibga solishdan iborat. Ushbu kodeks jinoyatchilikning oldini olish, xavfsiz raqamli makonni yaratish hamda fuqarolarning raqamli huquqlarini tartibga solish va himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar davrida inson huquqlarini himoya qilish Yangi O'zbekistonning demokratik rivojlanishi va barqaror ijtimoiy taraqqiyotini kafolatlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

REFERENCES

1. Andrushchenko, O. P. (2023). Zabezpechennia prav liudyny v umovakh totalnoi informatyzatsii suspilstva [Ensuring human rights in conditions of total informatization of society]. *The Bulletin of Yaroslav Mudryi National Law University. Series: Philosophy, Philosophic of Law, Political Science, Sociology*, 59(4), 164–180. <http://fil.nlu.edu.ua/article/view/289661>
2. Ashmanov, I. (2023). *V Rossii poyavitsya tsifrovoyi kodeks [A digital code will appear in Russia]*. TAdviser. <https://www.tadviser.ru/a/729130>
3. Bélanger, F., & Crossler, R. E. (2011). Privacy in the digital age: A review of information privacy research in information systems. *MIS Quarterly*, 35(4), 1017–1041. <http://hdl.handle.net/10919/81984>
4. European Union. (2016). *Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal*

data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation). <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32016R0679>

5. Federal Trade Commission. (2017). *Equifax data breach: What to do*. <https://www.consumer.ftc.gov/blog/2017/09/equifax-data-breach-what-do>

6. Frolova, M. (2024). *Edinyy dokument: kakie normy budet opisyvat Tsifrovoy kodeks RF [A single document: What norms the Digital Code of the RF will describe]*. News. <https://iz.ru/1704035/mariia-frolova/edinyi-dokument-kakie-normy-budet-opisyvat-tcifrovoi-kodeks-rf>

7. Khudoyan, G. M. (2023). *Osobennosti zashchity prav cheloveka v usloviyakh tsifrovoy transformatsii obshchestva [Features of human rights protection in the context of digital transformation of society]*. *Scientific Notes of the Crimean Federal University named after V. I. Vernadsky. Legal Sciences*, 9(1), 261–264.

8. Khvan, E. (2024). *V Kyrgyzstane vvedut Tsifrovoy kodeks. Chto on reguliruet [A Digital Code will be introduced in Kyrgyzstan. What it regulates]*. DW. <https://www.dw.com/ru/v-kyrgyzstane-vvedut-cifrovoj-kodeks-cto-on-reguliruet/a-71052164>

9. Mamadaliyeva, Z. M. (2023). *Elektron tijorat subyektlari huquqiy maqomini takomillashtirishning istiqbollari [Prospects for improving the legal status of e-commerce entities]*. *Young Scientists*, 1(13), 132–137. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8394483>

10. Normo'minov, R. H. (2025). *Raqamli inson huquqlari: tartib va himoya izlab [Digital human rights: seeking order and protection]*. *International Scientific and Practical Conference*, 2(6), 112–118. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15679815>

11. Reuters. (2022). *OneCoin Ponzi scheme: \$4.4 billion stolen in cryptocurrency scam*. <https://www.reuters.com/article/us-crypto-onecoin-scam-idUSKCN1VQ0Z2>

12. Russian Federation. (2006). *Federal Law No. 152-FZ on Personal Data*. ConsultantPlus. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61801/

13. Saidov, A. Kh. (2025). *Legal evolution of human rights protection in Uzbekistan amid digital transformation*. *Legal Issues in the Digital Age*, 6(1), 53–82. <https://doi.org/10.17323/2713-2749.2025.1.53.82>

14. Xabar.uz. (2025). *Internetda shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi jiddiy muammoga aylanmoqda [Protection of personal data on the Internet is becoming a serious problem]*. <https://xabar.uz/uz/tahlil/internetda-shaxsiy-malumotlar-himoyasi-eng-jiddi>

15. Zamin.uz. (2025). *O'zbekistonda Axborot kodeksi qabul qilinadi [The Information Code will be adopted in Uzbekistan]*. <https://zamin.uz/uz/ozbekiston/148200>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 2-SON

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.6.2.